



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 25-avgust

VII-11-91-11-163-K/25

Farg‘ona tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas‘uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida”gi PF-80-son Farmoni ijrosini ta‘minlashda davlat organlari va tashkilotlarini faoliyatini muvofiqlashtirish haqida

Aholining kundalik hayotida uchraydigan huquqiy muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish va bartaraf etish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rib borish, joylarda aniqlangan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish, fuqarolarga bepul birlamchi yuridik yordam ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yish va muvofiqlashtirib borish, davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida yagona huquqni qo‘llash amaliyotini shakllantirishda ularga metodik yordam ko‘rsatib borish va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas‘uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida”gi PF-80-son Farmonini hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarorida belgilangan adliya organlariga davlat organlari va tashkilotlarining qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tashkil etish bo‘yicha faoliyatiga uslubiy rahbarlik qilish va muvofiqlashtirish, ushbu tashkilotlarda huquqni qo‘llash amaliyotini barqarorligini va bir xilda ijro etilishini, inson huquqlari sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish kabi vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashi:

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi “Ma’muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas’uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida”gi PF-80-son Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farmonga asosan:

Tumanda 2025-yilga mo‘ljallangan “Huquqiy mahalla” konsepsiyasi amalga oshiriladigan mahallar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

mahalla fuqarolar yig‘inlarida ijro holati o‘rganiladigan birlamchi minimal standartlar bo‘yicha Yo‘l xaritasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan “Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida sifatli ijro etib borsin hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har oy yakuni bo‘yicha keyingi oyning 5-sanasidan kechiktirmasdan xalq deputatlari tuman Kengashi va Farg‘ona tuman adliya bo‘limiga axborot kiritilsin.

3. Aholining kundalik hayotida uchraydigan huquqiy muammolarini aniqlash, ularni tahlil qilish va bartaraf etish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rib borish, joylarda aniqlangan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish, fuqarolarga bepul birlamchi yuridik yordam ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yishga ma’sul davlat organlari va tashkilotlari mazkur qarorda belgilangan chora-tadbirlar va maqsadli ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlashga shaxsan mas’ul ekanliklari ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Farg‘ona tuman adliya bo‘limi (S.Maxkamov), xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari, mahalliy nashrlar bilan hamkorlikda keng jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali matbuot anjumanlari va brifinglar tashkil qilish tavsiya etilsin.

5. Tuman hokimi o‘rinbosarlari mazkur qaror ijrosi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni muntazam ravishda muhokama qilish va tuman hokimligi ijro intizomi bo‘yicha mas’ul xodimi bilan birgalikda **“Hokimlik soati”**ga ma’lumotlar kiritib borilishini ta’minlasin.

6. Farg‘onatuman adliya bo‘limi:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3666-son qarorida belgilangan tartibda mazkur qonunchilik hujjatini o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli amalga oshirilishini ta’minlash yuzasidan sohalar, hududlar va idoralar kesimida o‘rganishlarni olib borsin va joylardagi holat monitoringini yuritsin;

- o‘tkazilgan monitoringlar natijasida aniqlangan holatlar yuzasidan tegishli tartibda ta’sir choralari qo‘llanilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmlariga yuklansin.

Kengash raisi



INOMOV XAMIDULLO
TADJIYEVICH

Xalq deputatlari Fargʻona tumani
Kengashining
2025-yil 25-avgustdagi
VII-11-91-11-163-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Fargʻona viloyati Fargʻona tumanida 2025-yil davomida “Huquqiy mahalla”
konsepsiyasini amalga oshirish
REJA-GRAFIGI**

t/r	Mahalla fuqarolar yigʻini nomi	Muddati
Fargʻona tuman		
1.	Mindon MFY	2025-yil avgust
2.	Yambaroq MFY	2025-yil avgust
3.	Boʻstonobod MFY	2025-yil avgust
4.	Obod MFY	2025-yil avgust
5.	Vodil MFY	2025-yil avgust
6.	Vaziyo MFY	2025-yil avgust
7.	Xurshidi Tobon MFY	2025-yil avgust
8.	Mashʼal MFY	2025-yil avgust
9.	Yuqori Gulshan MFY	2025-yil sentabr
10.	Fargʻona MFY	2025-yil oktabr
11.	Satkak MFY	2025-yil noyabr
12.	Oqbilol MFY	2025-yil dekabr

Xalq deputatlari Fargʻona tumani Kengashining
2025-yil 25-avgustdagi
VII-11-91-11-163-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**Mahalla fuqarolar yigʻinlarida ijro holati oʻrganiladigan
birlamchi minimal standartlar
ROʻYXATI**

T/r	Oʻrganiladigan davlat standartlari	Belgilangan qoidalar mazmuni	Oʻrganiladigan davr	Masʼul vakolatli organ
1.	Savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat korxonalarining aholiga qulay masofada joylashganligi. (SHNQ-2.07.01-03, 23.12.2009-y.)	Savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat korxonalari shaharlarda 300 – 500 metr va qishloqlarda 500 – 2000 metr radiusda joylashgan boʻlishi lozim.	Har oy (1-ilovada belgilangan MFYlarda)	Fargʻona viloyati Raqobatni rivojlantirish va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi, Fargʻona tuman adliya boʻlimi
2.	Bozorlar va boshqa nooziq-ovqat muassasalari turar joylarga yaqin masofada joylashganligi. (SHNQ-2.07.01-03, 23.12.2009-y.)	Bozorlar va boshqa nooziq-ovqat muassasalari turar joylardan shaharda 1000 – 1500 metr radiusda hamda qishloqlarda transport bilan 30 daqiqada yetib borish imkoniyati yaratilishi lozim. Bozor majmualarini, doʻkonlarini va imoratlarini shahar va qishloq aholi punktlari aholisiga bir xil xizmat koʻrsatishni taʼminlashni hamda qulay transport aloqalari bilan bogʻlashni hisobga olib joylashtirish zarur.		
3.	Aholini ichimlik suvi taʼminoti bilan taʼminlanganligi. (SHNQ 2.07.01-23, 20.05.2024	Ichimlik suvi taʼminoti ehtiyojlar uchun birinchi navbatda yerusti suv obyektlaridan keyin esa yerosti suv obyektlaridan amalga oshirilishi	Har oy	Fargʻona tuman Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi

	y) (SanQvaN 0200-06, 15.05.2006 y)	lozim. Kelajakdagi suv quvurlarida keraksiz murakkab tozalash inshootlarini qurishning oldini olish uchun yer usti va yer osti suv manbalaridan markazlashtirilgan suv ta'minoti uchun tanlangan suv tarkibi belgilangan talablarga javob berishi kerak. Sanitariya-epidemiologiya xizmatining suv manbasidan foydalanish imkoniyati to'g'risidagi xulosasi beradi va 3 yil davomida amal qiladi.		bo'limi, “Farg'ona Suvta'minot” AJ Farg'ona tuman filiali, Farg'ona tuman adliya bo'limi
4.	Oqova suvlarni oqizish tizimi bo'lmagan aholini suv bilan ta'minlanganligi. (SHNQ 2.08.01-24)	Oqova suvlarni oqizish tizimi bo'lmagan hududlardagi aholini ularning uylaridan 100 metrdan uzoq bo'lmagan masofada joylashgan suv chiqarish uskunalari (kolonkalari) orqali ta'minlash lozim.		
5.	Oziq-ovqat savdosi bilan shug'ullanuvchi savdo korxonalari joylashuvi va hududiga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablari. (0068-24-son SanQvaN, hisob raqami – 237, 11.03.2024-y.)	Savdo korxonalari oziq-ovqat mahsulotlarining ifloslanishiga olib kelish ehtimoli yuqori bo'lgan ekologik ifloslangan hududlar (chiqindilar yig'iladigan joylar) hamda korxonalar (cho'chqachilik-chorvachilik majmualari, terini, suyakni qayta ishlash korxonalari) joylashgan hududlarda joylashtirilmasligi kerak.	Har oy	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati Farg'ona tuman bo'limi,
6.	Oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash, tashish va sotishga bo'lgan sanitariya-gigiyena talablari (0068-24-son SanQvaN, hisob raqami – 237, 11.03.2024-y.)	Savdo korxonalarida saqlanadigan oziq-ovqat mahsulotlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, xonalarning joyi va turi belgilanishi zarur. Plastik idishga qadoqlangan ichimliklar to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri ostida saqlanmasligi kerak.		Farg'ona tuman adliya bo'limi

		Sovutgichlar va muzlatgichlar ichida turli xil mahsulotlar zich joylashtirilmasligi, harorat -18°C va 4°C dan oshmasligi lozim.		
7.	Bolalar o'yinlari, sport o'yinlari va jismoniy tarbiya-sport mashg'ulotlari maydonchalarining mavjudligi. (SHNQ-2.07.01-03, 23.12.2009-y.)	Jismoniy tarbiya-sport inshootlari aholi punktlarining barcha turar-joy hududlarida, shuningdek, shahar atrofidagi yashil zonalarda joylashtirilishi kerak. Bolalar o'yinlari, sport o'yinlari va jismoniy tarbiya-sport mashg'ulotlari maydonchalari 1000 kishiga 0,31 ga maydonda mavjud bo'lishi lozim.	Har oy	O'zbekiston Mahallalari uyushmasi Farg'ona tuman bo'limi, Farg'ona tuman adliya bo'limi
8.	Mahalla markazlarining mavjudligi. (SHNQ-2.07.01-03, 23.12.2009-y.)	1,5 – 3,0 ming kishiga turar-joy tuzilmasining mahalla markazi bo'lishi lozim.		
9.	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ma'muriy binosining belgilangan talablarga muvofiqligi. (SHNQ 2.08.04-24)	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xonalarining tarkibi va maydoni belgilanlan talablar bo'yicha bo'lishi lozim. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ma'muriy binosida choyxona, ommaviy tadbirlar o'tkazish uchun inshootlar, dam olish va jismoniy sport mashg'ulotlari, maishiy xizmat punkti (sartaroshxona, ta'mirlash ustaxonasi) hamda aholiga xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik obyektlarini joylashtirishga yo'l qo'yiladi.		
10.	Gaz imte'molchilarining tabiiy gaz va suyultirilgan uglevodород gazlari bilan ta'minlash holati.	Gaz quvurlaridagi berkituvchi qurilmalar binoning tashqarisiga o'rnatilishi lozim. Gaz quvurlarining tayanchli, estakadalar, osma	Har oy	Farg'ona tuman Favqulodda vaziyatlar

	(SHNQ 2.04.08-22, 15.04.2024-y.)	o'tish joylari yonmaydigan materiallardan tayyorlanishi kerak.		bo'limi,
11.	Aholi punktlarida elektr uzatish tarmoqlarining xavfsiz joylashtirilganligi. (SHNQ 2.07.01-23, 20.05.2024-y.)	Kuchlanishi 35 kV va undan yuqori bo'lgan havo elektr uzatish tarmoqlari aholi punktlarining turar joy hududlaridan tashqarida o'tkazilishi lozim. Umumiy o'rta ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari hududlarida taqsimlash punktlari va transformator podstantsiyalarini joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.		“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Farg'ona tuman filiali, “Hududgaz Farg'ona” gaz ta'minot filiali Farg'ona tuman gaz ta'minoti bo'limi. Farg'ona tuman adliya bo'limi
12.	Yong'in depolari va o't o'chiruvchi avtomobillarning belgilangan normada mavjudligi. (SHNQ-2.07.01-03, 23.12.2009 y.)	Yong'in depolari, ming kishi aholisi bo'lgan punktlarda 1 ta o't o'chiruvchi avtomobil bo'lishi lozim.		
13.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining qamrov darajasiga qo'yilgan talablar. (SHNQ 2.07.01-23, 20.05.2024-y.)	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining sig'imi aholining demografik tarkibidan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan qamrab olish darajasi 1 – 5 yoshdagi bolalarni — 85 foiz, 5 yoshdan katta bolalarni esa — 100 foiz miqdorda qabul qilinishi kerak.		
14.	Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun guruhlar miqdoriga qo'yilgan talablarga rioya qilinishi. (VMQ-391-son, 13.05.2019-y.)	Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruhlar quyidagi miqdorda to'ldiriladi: – 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan guruhlarda – ko'pi bilan 30 nafar bola; – bolalar qisqa vaqt bo'ladigan guruhlarda – ko'pi bilan 30 nafar bola; – turli yoshdagi guruhlarda – ko'pi bilan 25 nafar	Har oy	Farg'ona tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, Farg'ona tuman adliya bo'limi

		bola; – bolalar kechayu kunduz bo‘ladigan guruhlarda – ko‘pi bilan 10 nafar bola.		
15.	Umumta‘lim muassasalarining sinflariga qo‘yilgan talablarga rioya qilinishi <i>(VMQ-140-son, 15.03.2017-y.)</i>	Belgilangan me‘yorlar bo‘yicha tegishli maydonga ega bo‘lgan umumta‘lim muassasasining sinflari to‘liqligi 35 nafardan ortib ketishiga yo‘l qo‘yilmaydi.		
16.	Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida o‘yin maydonchalarining eng kam (minimal) jihozlar bilan ta‘minlanganligi. <i>(VMQ-802-son, 22.12.2020 y.)</i>	Har bir bog‘cha uchun 1 dona ayvoncha bo‘lishi hamda bolalar ko‘ngilochar majmuasining quyidagi to‘plamlar to‘liq bo‘lishi lozim: – 1 dona qum qutisi (qumdon); – 500 kg qum quyish qutilari uchun qum; – 1 dona ertaksimon uyalar; – 1 dona sirpanchiq; – 1 dona arg‘imchoq; – 1 dona mavzuli uycha; – 1 dona shved gimnastik narvonchasi.	Har oy	Farg‘ona tuman maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi, Farg‘ona tuman adliya bo‘limi
17.	Maktab va maktabgacha ta‘lim tashkilotlari atrofida yo‘l harakati qoidalariga rioya etilayotganligi hamda yo‘l belgilari o‘rnatilganligi. <i>(VMQ-172-son, 12.04.2022-y.)</i> <i>(O‘z DSt 3644:2023 “Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari. Piyodalar o‘tish joylari. Tasnif. Umumiy talablar” O‘zbekiston Respublikasining davlat standarti)</i>	Maktab va maktabgacha ta‘lim tashkilotlari atrofidagi yo‘llarda Yo‘l harakati qoidalarida belgilangan quyidagi talablar bo‘lishi lozim: – bolalar muassasasi (maktablar, bolalarning dam olish maskanlari va shunga o‘xshashlar)ga yaqin yo‘lning qatnov qismidan bolalarning chiqib qolish ehtimolini bildiruvchi – “Bolalar” yo‘l belgisi ; – maktab yoki maktabgacha ta‘lim tashkilotlari oldida o‘rnatiladi “Maktab” axborot-ko‘rsatgich		

		belgisi; – maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari oldida piyodalarning o'tish joyini belgilovchi oq-qizil rangli yo'l chizig'i; – maktablarga yaqin yo'lning qatnov qismidan maktab o'quvchilarning chiqib qolish ehtimolini inobatga olgan holda maktablar joylashgan hududlar oldida yo'l chizig'i.		
18.	Ko'p kvartirali uy-joylarning turar joy mavzalarida umumiy foydalanishdagi maydonchalar mavjudligi. (SHNQ 2.07.01-23, 20.05.2024 y)	Turar joy mavze (daha, mahalla)larida quyidagi umumiy foydalanishdagi maydonchalar bo'lishi kerak: – maktabgacha yoshdagi bolalar uchun; – maktab yoshidagi bolalar o'ynashi uchun; – katta yoshdagi aholining dam olishi uchun; – jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan shug'ullanish uchun; – maishiy chiqindilarni yig'ish uchun; – it va boshqa uy hayvonlarini sayr qildirish uchun; – velosiped va boshqa mobil vositalarni (samokat, nogironligi bo'lgan shaxslar va bolalarning aravachalari) saqlash uchun.	Har oy	Farg'ona tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi, Farg'ona tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi, Farg'ona tuman adliya bo'limi
19.	Avtomobillar va boshqa transport vositalarini saqlash va to'xtash joylariga qo'yiladigan talablar. (SHNQ 2.07.01-23, 20.05.2024-y.)	Fuqarolarga tegishli avtomobillarni doimiy saqlash joylarini ularning egalari yashash joyidan ko'pi bilan 800 m masofada ko'zda tutish lozim. Nogironlarga qarashli transport vositalarini saqlash uchun garajlar nogiron yashash joyidan ko'pi bilan 200 m piyoda yetish masofasida ko'zda tutilishi kerak.		

20.	Avtomobillarga yonilg'i quyish stansiyalarining joylashuviga qo'yilgan talablar. (SHNQ 2.07.01-23, 20.05.2024-y.)	Aholi punktlarida AYOQS turar joy va jamoat hududlardan tashqarida, umumiy ehtiyojni hisobga olib avtomobillashuvi darajasi, harakat intensivligi va iste'mol talabiga bog'liq holda joylashtirish kerak.		
21.	Kundalik mehnat migratsiyasi aloqalari uchun jamoat transportidan qulay foydalanish imkoniyati yaratilganligi. (SHNQ 2.07.01-23, 20.05.2024-y.)	Istiqomat qilish joyi yoki ishxonadan jamoat transportining eng yaqin bekatigacha piyoda yetishning uzoqligi 400 metrdan oshmasligi kerak. O'tish joylarida qariyalar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun transportyor, eskalator, lift, ko'targich va harakatlanuvchi yo'laklar kabi qurilmalar bo'lishi kerak. Mavze (daha, mahalla)lar ichidan o'tuvchi jamoat transporti yo'nalishlarida jamoat transporti harakatlanishining intensivligi soatiga 30 dona, harakatlanish tezligi esa 40 km/h dan oshmasligi kerak.	Har oy	Farg'ona viloyati Trasport boshqarmasi,
22.	Mahalliy ahamiyatdagi ko'cha-yo'llarning belgilangan talablarga muvofiqligi. (SHNQ 2.07.06-24, 25.06.2024-y.)	Hududning relyefi va joylashuviga ko'ra ko'cha-yo'l kengligi turli o'lchamlarda bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Ko'chaning uzunligini 300 m dan 600 m gacha loyihalashga yo'l qo'yiladi. Piyodalar harakatini ta'minlashda yo'l bo'ylab piyoda yo'laklarini yo'lning harakat tasmasidan 20 – 30 sm balandlikda alohida qilib loyihalash lozim.		Farg'ona tuman Ichki ishlar bo'limi, Farg'ona tuman adliya bo'limi

23.	Aholi punktlarida yo'l harakati qoidalariga rioya etilayotganligi hamda yo'l belgilari o'rnatilganligi. (VMQ-172-son, 12.04.2022 y) (O'z DSt 3644:2023 "Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari. Piyodalar o'tish joylari. Tasnif. Umumiy talablar" O'zbekiston Respublikasining davlat standarti)	Turar joy dahalari va yondosh hududlarda (uy-joy binolari orasidagi yer uchastkasida) esa soatiga 20 kilometrdan oshirmasdan harakatlanishga ruxsat etiladi. Shuningdek, yer ustki piyodalar o'tish joyining zinalar va piyodalar harakat yo'lagi yoritilishi quyidagicha bo'lishi lozim: kechqurungi rejimda – kamida 15 lx; tungi rejimda – kamida 10 lx. Yoritkichlar GOST 33176-2014 talablariga muvofiq bo'lishi lozim.		
24.	Turar joylarda (ko'p kvartirali yoki yakka tartibdagi) ko'kalamzorlashtirilgan hududlarning mavjudligi. (SHNQ 2.07.01-23, 20.05.2024 y)	Ko'p kvartirali uy-joylari bo'lgan turar joy zonalarining ko'kalamzorlashtirilgan hududlari maydoni (maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchastkalarini hisobga olmaganda) mavze hududi maydonining 25 foizdan kam bo'lmasligi kerak. Yakka tartibdagi uy-joy uchastkalarining kamida 30 foizi ko'kalamzorlashtirilgan (tomorqadan iborat bo'lishi) bo'lishi lozim. Uchastkadagi daraxtlar ularning balandligiga qarab qo'shni chegarasidan 1 – 3 metr uzoqlikda ekilishi kerak.	Har oy	Farg'ona tuman ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limi, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati Farg'ona tuman bo'limi,
25.	Maishiy chiqindilarni tashlash va joylashtirishga oid talablarga rioya qilinishi. (VMQ-787-son. 02.10.2018-y.)	Jismoniy va yuridik shaxslar uchun: qattiq maishiy chiqindilarni ruxsat etilmagan joylarga va obyektlarga (ko'chalarga, hovlilarga, suv yo'llariga, ariq va qattiq maishiy chiqindilarni		Farg'ona tuman adliya bo'limi

		to'plash, joylashtirish va ko'mish uchun mo'ljallanmagan boshqa joylarga) tashlash hamda joylashtirish; ko'p kvartirali uyning umumiy foydalaniladigan joylarida qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va saqlash joylarini tashkillashtirish taqiqlanadi.		
26.	Chiqindi to'plash shoxobchalarining konteynerlar bilan ta'minlanganligi. (VMQ-787-son. 02.10.2018-y.)	Chiqindi to'plash shoxobchalari qattiq maishiy chiqindilarni alohida to'plash uchun mazkur qoidalarga muvofiq, ajratib turuvchi ranglar va maxsus belgilar hamda yozuvlar bilan markalangan konteynerlar bilan ta'minlanishi lozim. Konteynerlar kirish yo'lagi bilan teng darajada joylashishi lozim.		
27.	Bolalarning yashash joyidan maktabgacha va maktab ta'lim muassasalariga borish masofasi. (SHNQ-2.07.01-03, 23.12.2009-y.)	Bolalarning yashash joyidan maktabgacha va maktab ta'lim muassasalariga borish masofasi quyidagi normativlarda bo'lishi lozim: maktabgacha ta'lim muassasalari shaharlarda 300 metr radiusda hamda qishloqlarda 500 metrgacha radiusda; umumta'lim o'quv maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun shaharlarda 300 - 500 metr, qishloqlarda 500 - 750 metrgacha radiusda.	Har oy	Farg'ona tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi,
28.	Shahar va tuman parklari hamda dam olish ahamiyatiga ega zonalarga jamoat transportida qulay vaqtda borish imkoniyati	Jamoat transportida (transportni kutish vaqtini hisoblamaganda) shahar va tuman parklariga yetib olish vaqti 20 daqiqadan oshmasligi zarur. Dam olish ahamiyatiga ega zonalarda		Farg'ona tuman qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi,

	mavjudligi. (SHNQ -2.07.01-03, 23.12.2009 y.)	joylashgan aholining qisqa muddatli ommaviy dam olish obyektlarini joylashtiruv tartibi bu zonalariga jamoat transportida yetib olishni hisobga olib, odatda, ko'pi bilan 1,5 soatni nazarda tutish zarur.		Farg'ona tuman adliya bo'limi
29.	Dorixonalar, bank filiallari, aloqa bo'limlarining qulay joylashuvi. (SHNQ-2.07.01-03, 23.12.2009-y.)	Dorixonalar, bank filiallari, aloqa bo'limlari shaharlarda 500 metrgacha va qishloqlarda 2000 metrgacha yoki transport bilan 30 daqiqada borish imkoniyati bo'lishi lozim.	Har oy	Farg'ona tuman tibbiyot birlashmasi,
30.	Tibbiy punkt, shifokor pediatriya punkti (poliklinika, ambulatoriya filiali)larning mavjudligi. (SHNQ-2.07.01-03, 23.12.2009-y.)	Tibbiy punkt, shifokor pediatriya punkti (poliklinika, ambulatoriya filiali) 3-5 ming kishiga 1 ta mavjud bo'lishi lozim.		Farg'ona tuman adliya bo'limi